



## HARBIY XIZMATCHILARGA XORIJIY TIL O'RGATISHDA METODIKANING O'RNI INGLIZ TILI MISOLIDA

Yulduz O'rmonova

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10603000>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> January 2024  
Accepted: 30<sup>th</sup> January 2024  
Online: 31<sup>th</sup> January 2024

### KEY WORDS

Harbiy xizmatchilar, armiya, maxsus atamalar, chet tili, metodika.

### ABSTRACT

*Ushbu ilmiy maqolada harbiy xizmatchilarga xorijiy til o'rgatishda metodikaning o'rni turli misollar bilan, olimlarning fikr-mulohazalari tahlil qilingan holda tasvirlangan. Shuningdek, chet tili o'qitishda ixtisoslashuvning ahamiyati xususida ham so'z yuritilgan. Bir qator taklif va mulohazalar bildirilgan.*

Bugungi kun armiyasi xavfsizlik muammolarini hal qiluvchi zarur kuchga ega bo'lishi bilan birgalikda, harbiy xizmatchilarning chet tilini bilish va madaniy tajribaga ega bo'lishi kerakligini ham taqozo qilmoqda. Tabiiyki, har bir qo'shinga chet tillarida so'zlash va yozish imkoniyatiga ega, og'zaki nutq yoki yozma matnni so'zma-so'z va ko'chma shakllarida tushuna oladigan savodli harbiylar kerak.

Bilamizki, BMT ning rasmiy tillari: ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridir va biror bir jahon tilini noldan boshlab o'rganish bu vaqtini, shuningdek, inson omili va moliyaviy resurslarni o'z ichiga oladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Albatta, harbiy xizmatchilarga xorijiy tillar bepul o'rgatiladi. Ammo dars soatlari yetarli ajratilmasa yoki metodika harbiy sohaga mos bo'lmasa chet tilini o'zlashtirish harbiylar uchun birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

NATOning asosiy muloqot tilida gapira olmaslik xalqaro darajadagi harbiy operatsiyalarning ishtirokchisi uchun haqiqiy to'siq bo'ladi deb hisoblaydi xalqaro darajadagi ingliz tili o'qituvchilari Marioara Pateshan va Dana Zekia.<sup>1</sup> Darhaqiqat, ingliz tili nafaqat jahon ofitser mutaxassislari bilan tajriba almashish, xorijiy harbiy apparatlarni boshqarish va ta'mirlash, balki xalqaro harbiy missiyalarni qiyinchiliksiz amalga oshirishga ham ko'mak beradi.

Shunday ekan, Vatan sarhadlari, xalq farovonliginining himoyasi ishonib topshirilayotgan harbiylar uchun xorijiy tillarni o'rgatishda ixtisoslashish lozim. Ixtisoslashish aslida har bir sohada muhim sanaladi. Jurnalistikada, o'qituvchilikda, arxitekturada, tibbiyotda va boshqa sohalarda.

Inson bir sohaning hamma tarmog'ida professional bo'la olmaydi. Shuni inobatga olgan holda **xorijiy til o'qituvchilarini harbiy sohaga ixtisoslashtirish yoki xorijiy tillarni**

<sup>1</sup> [https://www.researchgate.net/publication/326652739\\_Foreign\\_Language\\_Education\\_in\\_the\\_Military](https://www.researchgate.net/publication/326652739_Foreign_Language_Education_in_the_Military)



**mukammal biluvchi ofitserlarni chet tili pedagogligiga qayta tayyorlash** maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ixtisoslik aslida nima? Bu sohaga doir eng kerakli kalit so'zlarni, atamalarni, texnikalar nomlari va vazifalarini biluvchi, qonun-qoidalardan boxabar mutaxassisidir. Biz bugun o'rta va oliy ta'liddagi metodika bilan harbiy xizmatchilarga biror bir chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatsak bu professional ofitserlar tayyorlashga yetarli bo'lmasligi mumkin. Chunki metodika ta'liddagi eng katta kuch. Har bir o'qituvchining o'ziga xos metodi bo'lishi kerak.

Yana bir taklifni ilgari suramiz. Bu — harbiy xizmatchilarga so'zlarni **spelling** (so'zlarni harfma-harf talaffuz qilish) orqali yodlatish. Bizga ma'lum, ingliz tilida so'zlar yozilganiday o'qilmaydi. Ya'ni yozuv va uning talaffuzi bir-birida farq qiladi. Shu sababdan spelling orqali so'z yodlatish harbiy xizmatchilar uchun bir qator qulayliklarni taqdim etadi.

Xalqaro ta'lim standartlariga nazar tashlasak, jahon davlatlarida spelling musobaqlari ko'plab o'tkaziladi. Bu nafaqat xorijiy tilda so'zlarni to'g'ri yodlashga yordam beradi, balki xotira mustahkamlanishiga ham katta zamin yaratadi. Qolaversa, ravon yozish, savodxonlik qobiliyatini ham oshiradi.

Harbiy xizmatchilarga xorijiy til o'qitish metodikasi til turiga qarab tuzilishi maqsadga muvofiq. Boisi hamma tildagi grammatik qoidalar bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida Ega+to'ldiruvchi+kesim shaklida gap tuzilsa, ingliz tilida S+V+O, ya'ni ega+kesim+to'ldiruvchi shaklida gaplar hosil bo'ladi. Bu bir elementar misol. Bu kabi misollarni ko'plab berishimiz mumkin. Shu sabab til metodikasi uning turi va xususiyatiga qarab tuzilishi kerak.

Harbiy xizmatchilarga xorijiy til o'rgatishda yana bir qoidani inobatga olish muhim sanaladi. Bu — **heteronyms (geteronimlar)**. Geteronimlar bu bir xil yoziluvchi, ammo har xil talaffuz va ma'no kasb etuvchi so'zlar.<sup>2</sup> Jaydari qilib aytganda, bir harfning yoki so'zning boshqacha talaffuz qilinishi oqibatida gapning ma'nosi butunlay o'zgarib ketishiga aytildi. Masalan, “**desert**” so'zini olsak,

Desert (*desert* shaklida) — “es” talaffuzi bilan aytilsa bu shirinlik degani;

Desert — (*dizert* shaklida) “zet” talaffuzi bilan aytilsa cho'l degan ma'noni anglatadi.

Misol beramiz: Training in des(z)ert is important — Cho'lda mashq qilish muhim.

Training in des(s)ert is important — Shirinlik mashq qilish muhim.

Yana bir misol beramiz. “**Present**” — birinchi “e” ga urg'u berib talaffuz qilinsa “hozir, ayni dam, ayni paytda, shu kunlarda” kabi ma'nolarni anglatadi. Agar urg'u ikkinchi “e” tovushiga berilsa “sov'a” degan ma'noni anglatadi.

Misol: Send present. (birinchi “e” tovushiga urg'u berilganda) — Hozir yubor.

Send present. — (ikkinchi “e” tovushiga urg'u berilganda) Sovg'a yubor.

Yana bir misol keltiramiz. “**Live**” (*liv* shaklida talaffuz qilinganda) — “yashamoq”; “**Live**” (*layf* shaklida talaffuz qilinganda) — “jonli” degan ma'noni anglatadi.

Our broadcast is live (*layf*) — Ko'rsatuvimiz jonli efir.

Ko'rib turganingizdek, nafaqat bir so'zni, balki birgina harfni xató talaffuz qilish bir qancha noqulayliklarga sabab bo'lishi mumkin.

<sup>2</sup> <https://preply.com/en/blog/an-amusing-aspect-of-english-pronunciation-what-are-heteronyms/>



Ilgari metodikaga pedagogikaning bir qismi sifatida qaralar edi. Bugunga kelib esa alohida fan sifatida qaralmoqda. Har xil metodikadan foydalanish tilni o'rganish jarayonida til o'rganuvchi zerikishiga imkon bermaydi, aksincha, tilni chuqurroq o'rganishiga yordam beradi. Aslida chet tili o'qitish metodikasining nazariy asosi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1. Zamonaviy chet tili o'qitish maktabi metodlarining asosiy qismlarini o'rganish va o'rgatish;
2. Til o'rganvchilarining tajribalarini o'rganish;
3. Amaliy mashg'ulotlar orqali mutaxassislik uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
4. Metodik adabiyotlar bilan ishslash va yangi metodik adabiyotlar yaratish.

Harbiy xizmatchilar ko'pincha bir-biri bilan samarali muloqot qilish uchun harbiy atamalar lug'atidan foydalanadilar. Bu atamalar ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotganlar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Harbiy so'zlarni o'rganish faqat shu sohaga aloqador odamlar uchun kerak, degan keng tarqalgan fikr bor. Va biz bu borada bahslashmaymiz. Bu shartlar ESL talabalari uchun birinchi raqamli ustuvorlik emas. Ammo biz sizga aytamizki, bunday lug'atni o'rganish o'qish jarayoniga foya keltirishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar bir-birlari bilan muloqot qilish uchun ko'plab maxsus armiya atamalaridan foydalanadilar. Ularni o'rganish orqali siz xizmatdagi odamlarni yaxshiroq tushunishingiz va ularga hurmatingizni bildirishingiz mumkin.

Operatsiyalar, turli mojarolar, urushlar va geosiyosiy voqealar bilan bog'liq yangiliklar va ommaviy axborot vositalarida ko'plab harbiy atamalarni eshitishingiz mumkin. Ushbu lug'atni bilish sizga sozlangan holda qolish va muhim ma'lumotlarni osongina tushunish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, agar siz harbiy xizmatga kirishni yoki tegishli sohada ishslashni istasangiz, harbiy so'zlar va ma'nolarni o'rganishingiz muhim sanaladi. Nafaqat harbiy xizmatchilarga dars o'tishda, balki turli treninglarga tayyorgarlik ko'rish, suhbatlar, xorij safarlarida, ish e'lonlari va suhbatlarda ham yordam berishi mumkin. Maxsus atamalarni o'rganish til o'rganuvchilarining so'z boyligini kengaytirish va umuman olganda, dunyoqarashini kengaytirishning ham ajoyib usuli hisoblanadi. Muayyan sohada qanchalik ko'p bilimga ega bo'lsangiz, kutilmagan suhbatlar paytida o'zingizni shunchalik ishonchli his qilasiz.

## References:

1. Researchgate.net
2. Preply.com English blog